

## BOLALIK DAVRINING PSIXOLOGIK RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA UNING ILMIY O'RGANILISHI

*Sotiboldiyeva Ra'no Tursunaliyevna  
Andijon viloyati Qo'rg'on tepa tumani  
46-maktab amaliyotchi psixolog*

**Annotatsiya** Inson hayotidagi eng muhim davrlar uning bolalik bosqichiga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda bolaning jismoniy, intellektual va emotsiyal rivojlanishi shakllanadi. Rivojlanishning har bir bosqichi o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ular bolaning kelgusidagi xulq-atvori, o'qish qobiliyati va ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqola bolalar rivojlanishining asosiy bosqichlari va ularning psixologik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** psixika, sog'lom muhit, sog'lom fikr, qobiliyat, ruhiy salomatlik, hissiy kechinmalar, psixik jarayonlar, muloqot, ong, tafakkur, mulohaza.

### KIRISH

Bolalik davridagi har qanday kasallik asab va ruhiy faoliyatning sog'lom tarzda rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va organizmda turli darajada ifodalangan asoratlar qoldiradi. Shuning uchun ham onaning homiladorlik davridan boshlab bolaning ruhiy salomatligini saqlash choralar ko'rinishi kerak. Homilador ayol asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan o'zini saqlay olsa, ruhan tetik bola dunyoga keladi. Shuning uchun



unga ruhiy sog'lom muhit yaratib berish lozim. Shu yerda bir misol keltirib o'tamiz. Uyida yolg'iz qolgan homilador ayol zerikkanidan faqat pianinoda o'ziga yoqqan bitta kuyni

chalib yuradi. Bola tug‘ilganidan so‘ng xuddi shu kuy chalinsagina tinch uxlaydigan bo‘lib qoladi. Bu o‘ziga xos fenomen hanuzgacha ilmiy tomondan tasdiqlangani yo‘q. Hayotda bunga o‘xhash misollar ko‘p. Masalan, homiladorlik davrida hadeb ruhan ezilaveradigan ayolda bolaning ruhiy nuqsonlar bilan tug‘ilishi havfi juda yuqori bo‘ladi. Bola organizmi rivojlanishida jiddiy davrlar farqlanadi. Funktsional sistemalar shakllanadigan davrlar rivojlanishning jiddiy davrlari deb ataladi. Evolyutsion nevrologiya uchun bu davrlarni o‘rganish va aniqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, rivojlanishning mana shu davrida hali shakllanmagan funktsiya juda sust va tez shikastlanadigan bo‘ladi. Bu davrda yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan nuqsonning oldini olish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Rivojlanishning jiddiy davrlarini o‘rganish uchun nutq shakllanishi jarayonini misol qilib olamiz.

Ma’lumki, nutqni egallab olish qobiliyati vaqt nuqtai nazaridan chegaralangan. Bola tug‘ilgach, nutq rivojlanishini ta’minlab beruvchi morfologik, biologik, neyrokimyoviy va psixofiziologik mexanizmlar ishida uzilish bo‘lsa, nutq va u bilan bog‘liq boshqa oliy ruhiy funktsiyalar shakllanishida nuqsonlar yuzaga kela boshlaydi. Masalan, vaqtida aniqlanmagan tug‘ma karlik nutq rivojlanishiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda nutqni ta’minlab beruvchi funktsional sistema bola bir yoshga to‘lmasdan buziladi. Bunday bolaning keyinchalik og‘zaki nutqqa qobiliyati yo‘qolib, faqat imo-ishoralarini tushunadi va imo-ishoralar bilan maqsadini atrofdagilarga tushuntiradi, xolos.

Agar og‘zaki nutq 4-5 yoshlarga qadar tiklanmasa, keyinchalik nutq rivojlanishi katta shubha ostida qoladi. Buning orqasidan boshqa oliy ruhiy funktsiyalar shakllanishi ham oqsay boshlaydi. Ularning shakllanish jarayonida ham jiddiy davrlar mavjud bo‘lib, biron bir tashqi yoki ichki salbiy ta’sirlar ostida funktsional sistemalararo bog‘lanishlar to‘xtab qolishi mumkin. Bunga qattiq qo‘rquvdan so‘ng bolada nutqning birdan yo‘qolishi misol bo‘la oladi. Jiddiy davrlarni tahlil qilish ko‘pgina cheklanishlarning mohiyatini ochib beradi. Shaxsning shakllanishi bolalik davridan boshlanadi. Ota-onada yomon kayfiyati bolada aks etmasligi kerak. Bosiqlik, mehribonlik, talabchanlik va aql bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish bolaning aqliy va psixoemotsional rivojlanishiga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Nutq rivojlanishida ruhiy funktsiyalarning bir maromda rivojlanganligi katta ahamiyatga ega. Bolada yozma nutq markazlarining sust rivojlanishi so‘zlarni to‘g‘ri yozishni o‘rgatishda qiyinchiliklar tug‘dirsa, og‘zaki nutqdagi nuqsonlar o‘qish va sanashning buzilishiga sabab bo‘ladi. Qo‘lida qalamni to‘g‘ri ushlay olmaslik esa chiroyli yozish va chizishni o‘rganishga xalaqit beradi. Shunday qilib, miya tuzilmalarining bir maromda rivojlanishi organizmning sinxron rivojlanishiga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun individual rivojlanishning jiddiy davrlarida kuzatiladigan har qanday asab va ruhiyat buzilishlari o‘z vaqtida aniqlanib, unga davo qilinishi g‘oyat muhimdir.

## Bolalar rivojlanish bosqichlari

Bola rivojlanishi bir nechta bosqichlarga bo'linadi: chaqaloqlik (0–2 yosh), ilk bolalik (3–6 yosh), o'rta bolalik (7–11 yosh) va o'smirlik (12–18 yosh). Har bir bosqichda bolaning jismoniy, intellektual, emotsiyal va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi.

### Chaqaloqlik davri (0–2 yosh)

Chaqaloqlik davrida bola asosiy fiziologik ehtiyojlarini qondirish orqali dunyoni bilib oladi. Ushbu bosqichda sezgi organlari rivojlanadi, harakat koordinatsiyasi shakllanadi va birinchi emotsiyalar namoyon bo'ladi. Psixologik jihatdan, bola xavfsizlik hissi va ishonchni rivojlantirishga muhtoj. Bu davrda ota-onaning mehribonligi va doimiy parvarishi muhim ahamiyatga ega.

### Ilk bolalik davri (3–6 yosh)

Ushbu bosqichda bola muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va fantaziyasi kuchayadi. Psixologik xususiyatlar orasida qiziquvchanlik, mustaqillikni shakllantirish va ijtimoiy rollarni o'rganish muhim o'rinni tutadi. O'yin orqali o'rganish bu davning asosiy xususiyati hisoblanadi.

### O'rta bolalik davri (7–11 yosh)

Bu bosqichda bola aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, mas'uliyat hissi ortadi va ijtimoiy muhitga ko'nikadi. Maktab ta'limi bolaning intellektual o'sishida muhim rol o'ynaydi. Psixologik jihatdan bola o'z qobiliyatlariga nisbatan ishonchni shakllantiradi va jamoadagi o'z o'rnnini anglaydi.

### O'smirlik davri (12–18 yosh)

O'smirlik yoshida jismoniy va gormonal o'zgarishlar bilan birga, shaxsiyat shakllanish jarayoni kuchayadi. O'smirlar o'z mustaqilligini namoyon qilishga intiladi, o'zligini izlaydi va ijtimoiy munosabatlarda murakkabliklar yuzaga keladi. Emotsional jihatdan bu davrda sezgirlik va o'zaro tushunmovchiliklar ko'proq uchraydi. Bolalar rivojlanishining har bir bosqichida emotsiyal barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional muvozanat bolaning ruhiy salomatligini saqlashda asosiy omil hisoblanadi. Xususan, ota-onalar va pedagoglarning bolaga ko'rsatayotgan qo'llabquvvatlovi uning emotsiyal barqarorligiga katta ta'sir qiladi.

Bolalarning intellektual rivojlanishi asosan o'qish va kuzatish orqali shakllanadi. Bu jarayonda ota-onalar va o'qituvchilarining to'g'ri yo'naltirishi bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, intellektual rivojlanish bola tafakkuri va mantiqiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Ijtimoiy moslashuv bolalarning tengdoshlar bilan muloqoti va jamoadagi faoliyatları orqali rivojlanadi. Bu jarayon bolaning ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi va ijtimoiy rollarni egallashiga yordam beradi. Ijtimoiy muhit bolalarning xulq-atvori va odob-axloq me'yorlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

### Ota-onalar va pedagoglar uchun tavsiyalar

- Bolaning yoshiga mos psixologik ehtiyojlarini tushunish va qondirishga intilish.

- Bolaning intellektual va emotsiyal rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish.
- Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bolaning rivojlanish jarayonini samarali tashkil etish.
- Bolaga ko'proq vaqt ajratish va uning hissiy holatiga e'tibor qaratish.

### XULOSA

Bolalar rivojlanish bosqichlari va ularga xos psixologik xususiyatlarni o'rganish bolalarning sog'lom va barkamol avlod bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi. Rivojlanishning har bir bosqichida bolaning ehtiyojlarini inobatga olish, unga yordam ko'rsatish va mos muhit yaratish muhimdir. Mazkur maqolada yoritilgan tavsiyalar otaonalar va pedagoglarga bolalar rivojlanishi jarayonini samarali boshqarishda qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shukurova, M. O. K. (2024). Growing children's speech in the process of introducing them to the environment and nature. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 130-135.
2. Shukurova, M. (2024). OILADA FARZAND TARBIYASIDA OTANING ROLI. ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI, 3(2), 162-167.
3. O'ktamovna, S. M. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA TABIAT BURCHAGINI TAYYORLASH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 661-667.
4. O'ktamovna, S. M. (2024). EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN PRIMARY GRADES. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 654-660.
5. O'ktamovna, S. M. (2024). PREPARATION OF THE NATURE CORNER IN PRESCHOOL EDUCATION. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 675-681.
6. SHUKUROVA, M. (2024). NEUROPEDAGOGY AS A FOUNDATION FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(07), 1-8.